

tavsiyalar tuslarini yetkazishga yordam beradigan turli lingvistik vositalar va strukturalar orqali o’z aksini topadi.

Shunday qilib, gazeta tilidagi modallik voqealar, faktlar va fikrlarga munosabatni bildirishda, shuningdek, axborotning faktik, ehtimoliy yoki kutilgan ekanligini aniqlashda muhim rol o’ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Гак В. Г. Француз тили назарий грамматикаси. Дарслик. – Самарқанд, 2002. – Б.108.
2. Гетман З. А., Архипович Т. П. Модальность как общетекстовая категория. – Вестник МГУ., 2006. – С. 34-48.
3. Мирзаев И. Ўзекистон Миллий Энциклопедияси. 6 Т. – Т., 2000. – Б.43.
4. Корди Е. Е. Конструкции с глаголом pouvoir в современном французском языке. – Л.: Наука, 1990. – С. 186-194.

## **ZOONIMIK KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING TAHLILI**

*Dilshod MUHITDINOV*  
*O’zDJTU o’qituvchisi*

*Annotatsiya.* Maqolada ingliz va o’zbek tilidagi zookomponentli frazeologik birikmalarning qiyosiy tahlili olib boriladi. Muallif frazeologik birikmalarning kognitiv-lisoniy tomonlarini ikki tilda yoritib, birikmalarning millatlar madaniyatida va nutqda qo’llanilishini misollar bilan ko’rsatadi. Shuningdek, lug’at boyligini oshirishda frazeologik birikmalarning o’rni hamda ularni o’quvchilarga o’rgatish yuzasidan maslahatlar berib o’tadi.

*Kalit so’zlar:* til birligi, allegoriya, frazeologik ibora, idioma, zoonimik komponent, ramz, xalq og’zaki ijodi, ta’sirchanlik, ko’chma ma’no, so’z boyligi, ahamiyat, qo’llanish, ona tili, adabiy til.

Ikki va undan ortiq so’zlardan tarkib topgan va yaxlit bir ko’chma ma’no ifodalaydigan, ta’sirchanlikka ega bo’lgan til birligi ibora deyiladi.

Iboralar og'zaki nutqda va badiiy uslubda ishlatiladi. Har qanday tilda o'ziga xos iboralar mavjud. Iboralar nutqni boyitadi va berilgan ma'lumotga his-hayajon qo'shib, ma'lumotni chuqurroq tushinishga yordam beradi.

Iboralar ahamiyati va qo'llanishi jihatidan odatda so'zga teng keladi. Iboralar ko'chma ma'no ifodalaydi va ta'sirchanlikka va obrazlikka ega bo'ladi. Iboralar gap tarkibida yaxlit ko'rinishda bitta savolga javob beradilar va bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradilar. Ayrim iboralar tarkibiga boshqa so'zlarni kiritish yoki tarkibidagi so'zlarni o'zgartirish mumkin. Iboralardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi, ramziy qiyofasini boyitadi.

O'zbek adabiyotshunosligida ‘allegoriya’ degan atama mavjud. Allegoriya ramzning bir ko'rinishi bo'lib, voqeа yoki buyumning mavhum tushunchasi o'rnida aniq tasvirlarni ifodalovchi ramziy so'zni qo'llash usulidir.

Masalan: ‘tulki’ ayyor kishini tasvirlashda, ‘bo'ri’ ochko'z odamni, ‘chumoli’ zahmatkash insonni, tasvirlashda qo'llanadi. Ingliz tili ham hayvonlar obrazi bilan uyg'unlashgan frazeologik iboralarga boy. Ingliz frazeologiyasida uy hayvonlari obrazi qo'llangan iboralar ko'p ishlatiladi. Bu iboralarda mushuk, sigir, ot, sichqon, qo'y, cho'chqa, baliq obrazlari qo'llangan. Bir necha ingliz tilidagi frazeologik iboralarni, ularni o'zbek tilida qo'llanadigan iboralar bilan tahlil qilib ko'raylik.

1. “Cat got your tongue” o'zbek tilida bu “Og'ziga tolqon solib olmoq” ma'nosiga mos.

- What's the matter? Cat got your tongue?

- Sorry. If you must know, I am keeping quiet because I'm scared out of my wits.

2. “Straight from the horse's mouth” ya'ni o'z og'zidan eshitmoq, asl manbadan ma'lumot olmoq.

- You mean Jill told you so herself?

- That's right, I got it straight from the horse's mouth!

3. “Go to the dogs” ma'nosi nochor ahvolga tushmoq.

- Have you seen their houses lately? It's really gone to the dogs. It's true, it has become run-down and in serious need of repair.

4. “*Fishy*” – shubhali holat.

- When the security guard saw a light in the store after closing hours, he thought there was something fishy going and informed his superiors.

5. “*To smell a rat*” noxush narsani sezmoq, his qilmoq.

- Why the front door is open. Didn’t you lock it before leaving the house?

- I’m sure I did. I can’t understand it.

- Frankly speaking, I smell a rat. Let’s call the police.

6. “*To have a cow*” – jahl chiqmoq, xafa bo’lmoq.

- Our teacher had a cow when nobody prepared for the class.

7. “*as gentle as a lamb*”

“*as polite as a lamb*”

Ushbu ingliz iborasida xuddi o’zbek iborasi “*qo’y og’zidan cho’p olmagan*” ya’ni yumshoq tabiatli, beozor ma’nolariga ega ekan va bu ikki tildagi idiomalar deyarli bir xil zoonimik komponentga ega ekan.

- The girl is as gentle as a lamb when she is with her little sister.

O’zbek tilida mehnatsevarlik ramzi “chumoli” deb olingan bo’lsa, ingliz tilida mehnatsevarlik ramzi bo’lib ‘ari’ hisoblanadi.

8. “*As busy as a bee*”

- He was as busy as a bee supporting his large family.

O’zbek adabiyotida juda sekin harakatlanish xususiyatini ramzi “*toshbaqa*” bo’lsa, ingliz tilida bu xususiyat ramzi bo’lib “*shilliqqurt*” olingan.

9. “*tulki*” so’zi barcha ertaklarda, xalq og’zaki ijodida “ayyorlik” ramzi bo’lib qo’llanadi. Ingliz tili ushbu ramzni ushbu ma’noda qo’llaydi va ingliz tilidagi “*as cunning as a fox*”, o’zbek tilida “*tulkiday ayyor*” yoki “*ilon yog’ini yalagan*” iboralari bilan ifodalash mumkin.

- He was as cunning as a fox and as deadly accurate with his left hand as an expert rifleman shooting for the bull.

Ingliz xalqi va boshqa Yevropa xalqlari uchun “*mushuk*” sevimli uy hayvoni hisoblanadi. Bu uy hayvonni parvarish qilishni xush ko’rishadi, uning uchun maxsus

ovqatlar, turar- joylar, hattoki kiyim-kechak o'ylab chiqarishadi. Odatda mushuklar dam olishni yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun ingliz tilida "mushuk" to'ladan kelgan, yalqov, ish yoqmas, boy kishilarning hatti-harakati va xarakteri ramzi sifatida foydalaniladi.

*10. "a fat cat"*

- Now that Mr. Anderson is rich, he ride around the town in a fancy car like a fat cat, letting everyone around do the work.

O'zbek tilidagi "ustasi farang" yoki "pixini yorgan" iboralari ingliz tilida "*wolf in the sheep's clothing*" iborasiga ma'no jihatidan mos keladi. O'zbek adabiyotida "bo'ri" obrazi "laqma, go'l" kishini timsolini yoritib bersa, yuqoridagi ingliz iborasida "ustama, ayyor" kishining obrazi yaratilgan. Ya'ni ov qilish maqsadida podaga qo'yning terisini yopinib olgan holda kirib, cho'ponga, hattoki qo'riqchi itlarga ham bildirmasdan o'ljaga ega bo'lish niyatidagi bo'rini ustamon kishiga qiyoslash mumkin.

Ko'rsatilgan misollar og'zaki nutqda va adabiy tilda frazeologok iboralarni qo'llash qanchalik muhim ya'ni ushbu iboralar tinglovchini yoki o'quvchini eshitayotgan yoki o'qiyotgan ma'lumotni qabul qilishiga yangi rang- barang qirralar qo'shib malumotni boyitishi va uning ta'sirini kuchaytirishda haqiyqiy xazinaligiga isbot deb qabul qilinishi kerak va til o'rganuvchilarga albatta frazeologik iboralarni o'rgatish va ularning ma'nolarini ona tilida qo'llanadigan iboralar bilan taqqoslab taxlil qilib ona tilini va o'rganayotgan tildagi so'z boyligini oshirish imkoniyatini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Michael Mc. Carthy, Felicity O'Dell – English vocabulary in Use (advanced), Cambridge university press, 2002.
2. Macmillan English Dictionary, Macmillan Publishing Press, 2006.
3. Koonin A.V. English phraseology, Moscow, 1970
4. Rasulov A. Ibora va maqollar to'plami, Shaxrisabz, 2007.
5. Shelly Vance Zaflin, Something to crow about, Washington, 1995.
6. Harry Collis – 101 American English idioms, New York, 2001.